

**QISHLOQ XO'JALIGIDA XORIJIY INVESTITSIYALAR: TARIXIY TAHLIL
(1991-2021)****Rahima Dadajonova Abdiazizovna***Namangan davlat universiteti tarix yo'nalishi 2-Kurs magistranti*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasida mustaqillik yillarida qishloq xo'jaligi sohasiga xorijiy investitsiyalarning kirib kelishi va rivojlanish jarayoni tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida xorijiy investitsiyalarning qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishini modernizatsiya qilish, agroinfratuzilmani rivojlantirish, ilg'or texnologiyalarni joriy etish hamda eksportbop mahsulotlar yetishtirishdagi o'rni yoritib berilgan.*

Kalit so'zlar: *Qishloq xo'jaligi, sug'orish, investitsiya, mustaqillik, ijtimoiy, iqtisodiyot, g'alla, paxta.*

Ko'hna zaminimizning boy o'tmish tarixi ming yillarga borib taqaladi. O'lkamizda shakllangan qadimiy ilmiy tarixiy ananalar shundan dalolat beradiki bundan uch ming yil avval muqaddas zaminimizda sun'iy sug'orishga asoslangan yuksak dehqonchilik madaniyati noyob irrigatsiya inshootlari bunyod etilgan.

Beruniyning yozishicha qadimgi xorazmlilar qishloq xo'jalik ishlarini davriy rejalashtirish ehtiyojidan kelib chiqib, o'zlarining taqvim kalendar tizimiga ega bo'lganlar.

Al Farg'oniy bobomiz arab dehqonlari uchun Nil daryosi sathini o'lchash uchun nilometr asbobini yaratganlar. Mustamlakachilik yillarida O'zbekistonning xalq xo'jaligi bir tomonlama rivojlantirildi. Ya'ni qishloq xo'jaligida paxta yetishtirishga, sanoatda esa paxta yalpi hosilini birlamchi qayta ishlashga asosiy e'tibor qaratildi.

Respublika sanoatining qolgan muhim tarmoqlari ham paxta majmuini rivojlantirishga muvofiq ravishda taraqqiy qildirildi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida qishloq xo'jaligi iqtisodiyotning asosiy tarmoqlaridan biri bo'lib, u mamlakatni oziq-ovqat bilan ta'minlash va eksport salohiyatini oshirishda muhim rol o'ynagan.

Shuni takidlab o'tish kerakki, O'zbekistonda mustaqillikka erishish uchun boshlangan harakatning dastlabki paytlaridanoq va mustaqillikka erishgandan keyin mamlakat iqtisodiyotining asosiy va muhim tarmog'i bo'lgan qishloq xo'jaligida zarur islohotlarni amalga oshirish eng avvalo bu sohada bozor munosabatlarini shakllantirish, mulkchilikning nodavlat shakllariga o'tish, dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyatiga keng yo'l ochib berish kabi masalalarga e'tibor qaratildi.

Bu sohalarni rivojlantirish uchun Respublikadagi Oliy Kengash tomonidan bir nechta muhim qarorlar qabul qilindi. Misol uchun 1990-yilning 20-iyunida qabul qilingan "Yer to'g'risida", 1991-yil 19-noyabrda "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida", 1992-yil 9-dekabrda "Xo'jalik jamiyatlari va shirkatlari to'g'risida" va shuningdek 1993-yil 6-mayida "Yer solig'i to'g'risida"gi qonunlar mustaqillik davridagi qishloq xo'jaligi inqirozidan olib chiqib ketadadi lekin bir o'z vaqt o'tgandan so'ng 1996-yilda xalqaro iqtisodiy makonda paxta inqirozi yuz beradi va bu inqiroz qishloq xo'jaligi taraqqiyotini ozmuncha

sekinlashtirib qo'yadi. Lekin bu inqirozdan chiqish uchun juda ham ko'p islohotlar va qarorlar ishlab chiqib qishloq xo'jaligiga tadbiriq etildi.

Qishloq xo'jaligi sohasi davlat taraqqiyotida, mamlakatdagi ijtimoiy va ijtimoiy jarayonlarning barqarorligini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega, chunki oziq-ovqat xavfsizligi millat kelajagini belgilovchi eng muhim omil hisoblanadi. Agrosanoat majmui rivojlangan mamlakatlarda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini etishtirish muhim eksport yo'nalishiga aylanib bormoqda, bu esa katta milliy daromad olish, shuningdek, tarmoq infratuzilmasini rivojlantirish, qo'llaniladigan boshqaruv mexanizmlarini takomillashtirish imkonini beradi.

O'zbekiston SSSR dan ajralib chiqqanidan so'ng g'alla yetishtirish sohasida juda ham ko'p qiyinchilikga uchuradi chunki, SSSR davrida O'zbekiston hududi asosan paxta maxsuloti yetishtirish uchun juda ham qullay bo'lganligi sababli paxta maxsuloti ekiladigan hudud juda ham keng joyni egallagan edi. Shuning uchun, g'alla ekiladigan hudud paxta maxsulotiga qaraganda juda ham kam edi. Mustaqillikka erishgandan so'ng esa bu ikki maxsulot o'rni tenglashtirildi va respublikamiz g'alla mustaqiligiga erishildi bu juda ham katta o'zgarishlarga olib keldi. Shu borada mustaqillik yillarida respublikada g'alla mustaqilligini ta'minlashga doir dastur ishlab chiqilgan ediki va u bosqichma-bosqich amalga oshirila boshlangan.

Xususan, donli ekinlar maydoni 1993-yilda 300 ming gektarga kengaytirildi. 1991-1993 yillarda qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishda 500 ming gektardan ko'proq hosildor yerlar shaxsiy tomorqa xo'jaliklari yuritish uchun ajratib berilgan hsiobladi. Shundan ko'rinib turibdiki, mustqailikdan so'ng g'allani paxta mahsuloti bilan tenglashtirish uchun keng ko'lamli islohotlar amalga oshirildi. Shuni ham qo'shimcha qilish joizki, 1995-yilda dehqon xo'jaliklarining soni ham nisbatan tez ko'paydi va shu yili ularning safiga 3 ming xo'jalik qo'shilgan edi. Shunga muvofiq ravishda, ularda band bo'lgan qishloq mehnatkashlarining soni 79229 kishidan 105377 kishiga o'shib bordi. Bilamizki 2007-2008-yillarda AQSHning moliya sektorida boshlangan inqiroz 2009-yil dunyo miqyosida global retssesiyaga aylanib ketdi va bu inqiroz bizga tasir etmasdan qo'lmas edi.

Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov o'zining "Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston muhitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralari" nomli asarida "...tobora chuqurlashib borayotgan jahon moliyaviy inqirozi mamlakatimizga ta'sir ko'rsatmaydi, bizni chetlab o'tadi, degan xulosa chiqarmaslik kerak. Masalani bunday tushunish o'ta soddalik, aytish mumkinki, kechirib bolmas xato bo'lur edi" - deb ta'kidlab o'tgan. Bundan kelib chiqadiki bizning davlatga ham bu inqirozni bir nechta tasirlari bolish mumkun. Birinchi Prezidentimiz Islom Abdug'aniyevich Karimov bu inqiroz davlatning qishloq xo'jaligiga bevosita ta'sir qilmasligi uchun bir nechta qarorlar va farmonlar qabul qilgan edi. Bu islohotlardan asosiysi bu 2009-yilni "Qishloq taraqqiyoti va farovonligi yili" deb nomlagani bo'lgan edi.

Rejali iqtisodiyotdan bozor munosabatlariga o'tish jarayonida xorijiy investitsiyalarni jalb etish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri sifatida belgilandi. Chunki qishloq xo'jaligi aholini oziq-ovqat bilan ta'minlash, sanoatni xomashyo bilan uzluksiz ta'minlash va eksport salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega edi.

Mustaqillikning dastlabki yillarida (1991-2000-yillar) mamlakatda investitsiya muhiti hali to'liq shakllanmaganligi sababli qishloq xo'jaligiga xorijiy sarmoyalar cheklangan miqdorda

kirib keldi. Asosan xalqaro moliyaviy institutlar – Jahon banki, Xalqaro valyuta jamg‘armasi, Osiyo taraqqiyot banki tomonidan qishloq infratuzilmasini rivojlantirish, sug‘orish tizimlarini yaxshilash va yer resurslaridan samarali foydalanishga qaratilgan loyihalar moliyalashtirildi. Ushbu davrda investitsiyalar ko‘proq kredit va grant shaklida jalb qilindi.

O‘zbekiston qishloq xo‘jaligida xorijiy investitsiyalar asosan tarmoqning samaradorligini oshirish, ishlab chiqarishni modernizatsiya qilish va eksport salohiyatini kuchaytirishga qaratildi. Chet el sarmoyadorlari tomonidan kiritilgan investitsiyalar qishloq xo‘jaligining an‘anaviy shakllarini tubdan yangilash bilan birga, ilg‘or texnologiyalar va zamonaviy boshqaruv usullarini joriy etishga xizmat qildi.

Xorijiy investitsiyalarning muhim qismi suv resurslaridan oqilona foydalanish masalalariga yo‘naltirildi. Sug‘orish tizimlarini modernizatsiya qilish, tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish texnologiyalarini joriy etish orqali suv tanqisligi sharoitida hosildorlikni saqlab qolish va oshirish maqsad qilindi. Bu yo‘nalishdagi sarmoyalar yer unumdorligini tiklash va ekologik barqarorlikni ta‘minlashda muhim ahamiyat kasb etdi.

Shuningdek, investitsiyalar yuqori qo‘shimcha qiymatga ega mahsulotlar yetishtirishga qaratildi. Meva-sabzavotchilik, uzumchilik, bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaliklari xorijiy kapital uchun eng jozibador yo‘nalishlardan biri bo‘ldi. Ushbu loyihalar doirasida intensiv texnologiyalar, sifatli urug‘lik materiallari va zamonaviy agrotexnika vositalari keng qo‘llanildi.

Qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash va saqlash infratuzilmasini rivojlantirish ham xorijiy investitsiyalarning ustuvor yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Sovutish omborlari, logistika markazlari, qadoqlash va sertifikatlash tizimlariga kiritilgan sarmoyalar mahsulotlarning eksport talablariga mos bo‘lishini ta‘minladi hamda yo‘qotishlar miqdorini kamaytirdi.

Bundan tashqari, xorijiy investitsiyalar qishloq xo‘jaligida ilmiy-innovatsion faoliyatni rivojlantirishga xizmat qildi. Agrotexnologiyalar, raqamli boshqaruv tizimlari, agroxizmatlar va maslahat markazlari tashkil etilishi orqali ishlab chiqarishda samaradorlik va boshqaruv sifati oshirildi. Kadrlar tayyorlash va mahalliy mutaxassislar malakasini oshirishga qaratilgan loyihalar ham muhim o‘rin egalladi.

Umuman olganda, xorijiy investitsiyalar qishloq xo‘jaligida resurslardan samarali foydalanish, mahsulot sifatini yaxshilash, eksportga yo‘naltirilgan ishlab chiqarishni kengaytirish va tarmoqning barqaror rivojlanishini ta‘minlashga xizmat qiluvchi strategik yo‘nalishlarga jamlandi.

2000-yillarning boshidan boshlab qishloq xo‘jaligida islohotlar jadallashdi. Fermer xo‘jaliklari tashkil etilishi, yer munosabatlarining takomillashuvi hamda xususiy sektor ulushining oshishi xorijiy investorlar uchun yanada qulay sharoit yaratdi. Natijada paxta-to‘qimachilik klasterlari, meva-sabzavot yetishtirish va qayta ishlash loyihalariga xorijiy kapital jalb etila boshlandi. Ayniqsa, Rossiya, Xitoy, Janubiy Koreya, Turkiya va Yevropa davlatlari bilan hamkorlikdagi qo‘shma korxonalar soni ortdi.

2016-yildan keyingi davrda amalga oshirilgan ochiq iqtisodiy siyosat va investitsiya muhitini tubdan yaxshilashga qaratilgan islohotlar qishloq xo‘jaligiga xorijiy investitsiyalar oqimini sezilarli darajada oshirdi. Valyuta liberallashtirish, soliq va bojxona imtiyozlari,

investorlar huquqlarining kafolatlanishi natijasida zamonaviy agrotexnologiyalar, tomchilatib sugʻorish, intensiv bogʻ dorchilik va issiqxona xoʻjaliklariga yirik xorijiy sarmoyalar kiritildi.

Hozirgi kunda xorijiy investitsiyalar qishloq xoʻjaligida nafaqat ishlab chiqarish hajmini oshirish, balki ilgʻor texnologiyalarni joriy etish, eksportbop mahsulotlar yetishtirish va qishloq hududlarida bandlikni taʼminlashda muhim rol oʻynamoqda. Shu tariqa, mustaqillik yillarida qishloq xoʻjaligiga xorijiy investitsiyalar kirib kelishi bosqichma-bosqich rivojlanib, bugungi kunda tarmoqning barqaror va raqobatbardosh rivojlanishiga xizmat qilmoqda.

Xulosa qilib aytganda, mustaqillik yillarida qishloq xoʻjaligiga xorijiy investitsiyalarni jalb etish Oʻzbekiston agrar sohasini isloh qilish va modernizatsiya qilishda muhim omil boʻlib xizmat qildi.

Xorijiy sarmoyalar hisobiga ishlab chiqarish jarayonlariga zamonaviy texnologiyalar joriy etildi, suv va yer resurslaridan foydalanish samaradorligi oshdi hamda qishloq xoʻjaligi mahsulotlarini qayta ishlash va eksport qilish imkoniyatlari kengaydi. Shu bilan birga, investitsiyalar qishloq hududlarida bandlikni taʼminlash va aholining daromadlarini oshirishga ijobiy taʼsir koʻrsatdi.

Kelgusida qishloq xoʻjaligida xorijiy investitsiyalarni yanada faol jalb etish tarmoqning raqobatbardoshligini kuchaytirish va milliy iqtisodiyot barqarorligini taʼminlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Qishloq xoʻjaligi iqtisodiyoti «Tafakkur» nashriyoti 2011-yil 15-16 betlar.
2. Абдуғаниев А. Қишлоқ хўжалиги иқтисодиёти. -Т.: Адабиёт жамғармаси. 2007. -340 б.
3. Alimova D. Mustaqillik Oʻzbekiston tarixining dastlabki qadamlari. - T., 2000. - 233 b.
4. Qodirov B., Rulinov J. Mustaqillik va ijtimoiy taraqqiyot. - T., 1998. - 235 b
5. “Qishloq xoʻjaligida investitsion jarayonlarni boshqarish” oʻquv uslubiy majmua Samarqand 2021 yil.
6. Tohir Daliyev. “Ezgu maqsadlar, ulkan rejalar agrar soha istiqbolini belgilaydi” Oʻzbekiston Qishloq xoʻjaligi. N:2. 2018.
7. Babajanov. “Yer resurslaridan samarali foydalanishni barqaror rivojlantirish muammolari” Agroilm N:5. 2019.
8. Tursunov S. “Dala ekinlari mahsulotlarini yetishtirish texnologiyasi” Toshkent. 2013.
9. Axmedov A, Sayidaminov Z. Oʻzbekiston Respublikasi. -T.: “Oʻzbekiston”, 2006.-B. 448.
10. Taraqqiyot va hamkorlik yoʻllarida: Oʻzbekiston tashqi siyosati va diplomatiyasi; T.: “Oʻzbekiston”, 1993 yil.